O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 17 - noyabr 308-10-212-Q/23 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 1-noyabrdagi “2023-2024-yilgi kuz-qish davrida isitish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish hamda ko‘p qavatli uylar va ijtimoiy soha ob'ektlarini issiqlik energiyasi bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi 548-10-0-Q/22-son qarori ijrosi to’g’risida

Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 1-noyabrdagi “2023-2024-yilgi kuz-qish davrida isitish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish hamda ko‘p qavatli uylar va ijtimoiy soha ob'ektlarini issiqlik energiyasi bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi 529-10-0-Q/23-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Toshkent viloyati hokimining 2022-yil 17-oktabrdagi 548-10-0-Q/22-son qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o’rinbosari S.Mirsagatov, tuman qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo’limi N.Bazarbayev, va tuman issiqlik manbayi bo’limi raxbari V.Saidovga hamda boshqa tegishli tashkilotlar bilan birgalikda, markazlashgan issiqlik ta’minotidan foydalanuvchi iste’molchilarni issiqlik energiyasi bilan ta’minlash maqsadida, ko‘p kvartirali uylar va ijtimoiy soha obyektlarini sinov tariqasida isitilishiga tayyorgarlik ko‘rish, markazlashgan issiqlik ta’minotining ishlash tizimini barcha qismlarini tekshirish hamda imkoniyatini aniqlash uchun 2023-yil 5-noyabrdan ijtimoiy soha ob`yektlari va 2023-yil 6-noyabr kunidan boshlab ko‘p qavatli turar joy binolarini muntazam isitilishga o’tishni ta’minlasin.

3. Tuman hokimining o’rinbosarlari S.Mirsagatov, tuman qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo’limi (N.Bazarbayev), tuman issiqlik manbayi

bo’limi rahbari V.Saidov hamda barcha ijtimoiy soha rahbarlari bilan 2023-2024-yillar mavsumida ko‘p kvartirali uylarni va ijtimoiy soha obyektlarini belgilangan me’yorlarga ko‘ra issiqligini ta’minlash, yetkazib berilayotgan issiqlik energiyasi uchun kreditorlik-debitorlik qarzlarni oshib ketmasligi uchun shaxsan javobgar ekanligi belgilab qo‘yilsin.

4. Tuman hokimining o’rinbosarlari S.Mirsagatov, tuman qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo’limi (N.Bazarbayev), tuman issiqlik manbayi bo’limi raxbariV.Saidov barcha ijtimoiy soha rahbarlari bilan birgalikda bir hafta muddatda qo‘shimcha ravishda barcha ijtimoiy soha obyektlaridagi isitish qozonlarini xatlovdan o‘tkazsin.

5. “Toskenttumangaz” bo’limi (F.Mirzaaxmedov), tuman ETK (E.Usmanxodjayev) “Toshkent suv ta’minoti” MCHJning tuman bo’limi (D.Niyazov), “Musaffo obi hayot” MCHJning tuman bo’limi (D.Xikmatov) 3 kun muddatda tuman issiqlik energiyasidan foydalanuvchi iste’molchilarga uzluksiz issiqlik energiyasini ta’minlab berish uchun 2022-2023-yilgi isitish mavsumida tabiiy gaz, sovuq suv va elektr energiyasini uzluksiz va yetarli miqdorda yetkazib berish chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin va tasdiq uchun tuman hokimiga kiritsin.

6. Tuman qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo’limi (N.Bazarbayev), ko‘p qavatli uylardagi issiqlik ta’minoti tizimining barqaror va bir maromda ishlashini ta’minlash uchun aholining issiqlik xizmatidan foydalanish qoidalarga rioya etilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov va Tuman qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo’limi N.Bazarbayev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**